# 2020- yil yanvar-may oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-may oylarida Surxondaryo viloyatida jami **1 816,4** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **103,2 %** ni tashkil etdi.




## 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma‘lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*



## Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda




2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2426 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 480 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o‘tgan yilga nisbatan **112,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **66,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **153,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **13,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **161,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,5 %**) o‘sishidir.



## Surxondaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.06.2019- yil | 01.06.2020- yil | |
| Surxondaryo viloyati | 1 946 | 2 426 | 124,7 |
| Termiz sh. | 654 | 711 | 108,7 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 35 | 52 | 148,6 |
| Angor | 106 | 134 | 126,4 |
| Bandixon | - | 34 | - |
| Boysun | 110 | 145 | 131,8 |
| Denov | 112 | 136 | 121,4 |
| Jarqo‘rg‘on | 149 | 195 | 130,9 |
| Qiziriq | 117 | 148 | 126,5 |
| Qumqo‘rg‘on | 113 | 156 | 138,1 |
| Muzrabot | 91 | 111 | 122,0 |
| Sariosiyo | 104 | 133 | 127,9 |
| Termiz | 176 | 215 | 122,2 |
| Uzun | 43 | 51 | 118,6 |
| Sherobod | 59 | 85 | 144,1 |
| Sho‘rchi | 77 | 120 | 155,8 |

## Surxondary viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni
## 01.06.2020- yil holatiga ko‘ra (*ulushi %* da)




***Ma‘lumot uchun***: *viloyatda soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,3 %), Termiz (8,9 %) va Jarqo‘rg‘on (8,0 %) tumanlarida qayd etildi.*

Joriy yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **277,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **115,2 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,6 %** punktga ko'payib, **15,3 %** ni tashkil etdi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi, % da




***Ma'lumot uchun:*** *yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Sariosiyo tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **73,8** % i yoki 2019 - yilning yanvar-may oyiga nisbatan **112,5 %),** Qumqo'rg'on (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,8** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **63,7** %), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,1 % i,** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **113,1** % ) ga to'g'ri keldi.*

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,6 % i** to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **1,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,8 %** ni tashkil etgan holda **1 173,6** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan* ***0,3 %*** *punktga kamaydi va* ***20,1*** *% ni tashkil etdi yoki* ***365,0*** *mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan* ***102,9*** *% ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

**ulushi % da, mlrd. so'm**




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **7,1** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **37,2 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 809,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **0,4 %** va **99,6 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



## Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| Surxondaryo viloyati | 1 816,4 | 7,1 | 100,0 | 1 809,3 | 100,0 |
| Termiz sh. | 468,3 | 1,7 | 23,9 | 466,6 | 25,8 |
| tumanlar: | | | | | |
| Oltinsoy | 27,8 | - | - | 27,8 | 1,5 |
| Angor | 68,8 | - | - | 68,8 | 3,8 |
| Bandixon | 13,7 | - | - | 13,7 | 0,8 |
| Boysun | 117,3 | - | - | 117,3 | 6,5 |
| Denov | 141,7 | - | - | 141,7 | 7,8 |
| Jarqo‘rg‘on | 101,8 | - | - | 101,8 | 5,6 |
| Qiziriq | 46,9 | 3,1 | 43,7 | 43,8 | 2,4 |
| Qumqo‘rg‘on | 56,8 | - | - | 56,8 | 3,1 |
| Muzrabot | 73,4 | - | - | 73,4 | 4,1 |
| Sariosiyo | 369,7 | - | - | 369,7 | 20,4 |
| Termiz | 111,9 | - | - | 111,9 | 6,2 |
| Uzun | 51,2 | - | - | 51,2 | 2,8 |
| Sherobod | 113,3 | 2,3 | 32,4 | 111,0 | 6,2 |
| Sho‘rchi | 53,8 | - | - | 53,8 | 3,0 |



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 1816,4 | 103,2 | 100,0 |
| Termiz sh. | 468,3 | 100,6 | 25,8 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 27,8 | 75,5 | 1,5 |
| Angor | 68,8 | 90,6 | 3,8 |
| Bandixon | 13,7 | 98,5 | 0,8 |
| Boysun | 117,3 | 105,0 | 6,5 |
| Denov | 141,7 | 105,2 | 7,8 |
| Jarqo‘rg‘on | 101,8 | 100,4 | 5,6 |
| Qiziriq | 46,9 | 93,1 | 2,6 |
| Qumqo‘rg‘on | 56,8 | 82,0 | 3,1 |
| Muzrabot | 73,4 | 101,0 | 4,0 |
| Sariosiyo | 369,7 | 117,1 | 20,3 |
| Termiz | 111,9 | 100,7 | 6,2 |
| Uzun | 51,2 | 108,9 | 2,8 |
| Sherobod | 113,3 | 101,8 | 6,2 |
| Sho‘rchi | 53,8 | 125,8 | 3,0 |

# Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari,% da

## 2019- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 5,8 | 23,1 | 71,1 |

## 2020- yil yanvar-may

| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | Fuqarolik obyektlarini qurish | Bino va inshootlarni qurish |
|---|---|---|
| 6,7 | 27,3 | 66,0 |

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo’yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*



## Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi % da**

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,7 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **2,4 %** punktga kamayib, **68,8 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019 - yilning yanvar-may oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga ko‘payib, **30,5 %** ni tashkil etdi.





## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

**ulushi % da**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **51,4 %** ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **1,3 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **48,6 %** (**1,3 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**ulushi % da**

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,7 %** punktga kamaydi va **12,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **88,0 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **12,7 %** punktga ko‘paydi.



# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-may oylarida

## Eng yuqori hajm

*(mlrd. so‘m)*

1. Termiz sh. 468,2
2. Sariosiyo 369,7
3. Denov 141,7



## Kichik hajm

*(mlrd. so‘m)*

1. Qiziriq 46,9
2. Oltinsoy 27,8
3. Bandixon 13,7

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

**Aloqa telefoni: *(76) 223-07-15***